

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o‘rganish ICESCO kafedrasi, tarix fanlari nomzodi, dotsent D. Murotov taqrizi ostida

**Mahmudova Odina Obiddin qizi
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islomshunoslik mutaxassisligi magistri
+998994862610,
odinamahmudova121@gmail.com**

“XATIB BAG‘DODIYNING “AL-JOME” ASARIDA “HADIS ILMIDA NIYATNING AHAMIYATI” MAVZUSINI YORITILISHI”

Annotatsiya: Niyat – islom dinidagi eng muhim amallardan biridir, oddiy ishlar ham niyatni yaxshiligi sababli savobli amallarga aylanadi va niyatning yomonligi tufayli gunoh ishlar qatoriga kiradi. Barchaga ma’lumki, Har bir ishning boshi albatta niyat bilan boshlanadi. Hatto, islom faqihlari har bir ish uchun niyat qilishni farz darajasiga ham ko‘tarishgan. Shunday ekan, Xatib Bag‘dodiyning ta’biri bilan aytganda ilmlarning eng ulug‘laridan biri bo‘lmish Hadis ilmni talab qiluvchi tolibga niyatini xolis qilishligi va maqsadi Alloh taoloning rizologi bo‘lishi kerakdir.

Kalit so‘zlar: Niyat, hadis, jome’.

«РАЗЪЯСНЕНИЕ ТЕМЫ «ЗНАЧЕНИЕ НАМЕРЕНИЯ В НАУКЕ О ХАДИСЕ» В КНИГЕ ХАТИБА БАГДАДИ «АЛЬ-ДЖАМЕ»

Аннотация: Ният — одно из самых важных дел в Исламе, простые дела становятся похвальными из-за добрых намерений, а греховные — из-за плохих намерений. Всем известно, что начало всякого дела обязательно начинается с намерения. Даже исламские правоведы возвели намерение каждого произведения до уровня фарда. Поэтому, по словам Хатиба Багдади, искатель, требующий знания хадисов, которые являются одной из величайших наук, должен сделать свое намерение беспристрастным, а его целью должно быть довольство Всевышнего Аллаха.

Ключевые слова: Намерение, хадис, джаме.

“ELUCIDATION OF THE TOPIC “IMPORTANCE OF INTENTION IN THE SCIENCE OF HADITH” IN KHATIB BAGHDADI’S WORK “AL-JAME”

Annotation: Intention is one of the most important deeds in Islam, simple deeds become meritorious deeds due to good intentions, and sinful deeds due to bad intentions. It is known to everyone that the beginning of every work necessarily begins with an intention. Even the Islamic jurists have raised the intention for every work to the level of a fard. Therefore, in the words of Khatib Baghdadi, a seeker who demands the knowledge of Hadith, which is one of the greatest sciences, should make his intention impartial and his goal should be the pleasure of Allah Almighty.

Key words: Intention, hadith, jame.

Ma’lumki, islomning madori bo‘lgan hadislardan biri Umar r. a. dan rivoyat qilingan Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam: “Albatta, amallar niyatga bog‘liqdir. Albatta, har bir kishining niyat qilgan narsasi bo‘ladi” hadisi emas. Shuning uchun ham ulamolarimiz bu

hadisi sharifni alohida e'tibor bilan o'rganib chiqqanlar. Imom Ahmad ibn Hanbal r.a.: "Ilmning uchdan biri shu hadisda", degan ekanlar. Xususan, Xatib Bag'dodiy "Al-Jome" asarining birinchi bobi ham aynan "Hadis talab qilishda niyat" deb nomlangan ekanligi ushbu mavzuda ahamiyatlidir.

Imom va Xatib unvonlariga ega bo'lgan, Bag'dodiyning to'liq ismi Abu Bakr Ahmad ibn Ali ibn Sobit ibn Ahmad ibn Mahdiy ash-Shofe'iydir(392/1002 - 463/1071). Abu Maoliy ibn Juvayniy va Abu Qosim Qushayriy bilan Abu Hasan Ash'ariy maktabining to'rtinchi avlod qatlamida turuvchi muhim arbobi hisoblanib, Zahabiy tomonidan "Tengsiz imom, olim va muftiy, sinchkov muhaddis, hadis ilmida o'z davrining olimi, ko'plab asarlar muallifi va hadis olimlarining muhri" deb ta'riflangan. Qinnavjiy esa: "U hadis va tarixni afzal ko'rgan faqih edi" degan. Otasi Qur'on hofizi va Bag'dodning janubi-g'arbidagi Darzijonda bosh va'zxoni (xatib) bo'lib, uni o'n bir yoshida Ibn Razquya Bazzor sinfida ta'lim olishga beradi, shuning uchun ham uning birinchi sayohati hijriy 415-yil Bag'dodga keyin Naysabur atrofiga bo'lgan, Bag'dodga qaytib, keyin ikki yil Asbaxon, Ray, Hamadon, Dinovar, Shomga sayohat qilib, so'ng Makkaga hajga borgan, keyin Darzijonga qaytib, 451-yilgacha shu yerda istiqomat qiladi, so'ngra 459-yilgacha Damashqda, 462-yilgacha Tir (Sur)da turib, keyin yana Bag'dodga qaytib o'sha yerda vafot etdi.

Xatib Bag'dodiy hadis ilmida ko'p hadis rivoyat qilgan va jamlagan bo'lib, shogirdi, hanbaliy hadis olimi Ibn Aqilning so'zlariga ko'ra, Xatib Bag'dodiy hadis ilmida tengsiz asarlar muallifiga aylangan. U son-sanoqsiz shayxlardan hadis eshitgan, jumladan Abu Bakr al-Barqoniy (u ham undan rivoyat qilgan), Abu Nuaym al-Asbahoniy, al-Abdaviy va taqvodor olima Karima binti Ahmad ibn Muhammad al-Marvaziyya – al-Kushmihoniyning shogirdlaridan biri – al-Xatib ellik ikki yoshida haj safari chog'ida al-Buxoriyning "Sahih"ini besh kun ichida undan olgan. U Shofe'iy fiqhini Abu al-Hasan ibn al-Mahamiliy va bir necha yillar davomida tez-tez borib yurgan qozi Abu at-Tayyib at-Tabariydan olgan. Mashhur shogirdlari orasida: Nasr al-Maqdisiy, Ibn Makula, al-Humaydi, Abu Mansur ash-Shayboniy va hanbaliy Abu Ya'la bo'lgan.¹

Xatib Bag'dodiyning "Al-Jome'" asari hadis o'ganuvchi va rivoyat qiluvchilarning odobiga taaluqli bo'lgan masalalarning eng daqiq jihatlari o'zida jamlovchi kitob bo'lgani uchun ham shunday nomlangan. Ushbu kitobning to'liq nomi esa "Hadis roviysining axloqi va hadis tinglovchisining odobi to'plami" bo'lib bu asar Bag'dodiyning "Sharaf ashab hadis" asarining davomi hisoblanadi.

Xatib Bag'dodiyning "Al-Jome'" asarining ilk bobining tahlilidan bilish mumkinki, ilmlar orasida eng ulug'laridan bo'lmish hadis ilmi bilan shug'ullanish sharafligini va bunga kirishishdan oldin to'g'ri niyat qilishlik esa eng muhim amallardan biridir. Ushbu fikrning isboti sifatida Xatib Bag'dodiy (rahimahulloh) quyidagi hadisni keltiradi Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytdilar: "Kimki oxiratiga manfaat beradigan ilm o'rgansa, u bilan dunyodan biror narsa olishni niyat qilsa, jannatning hidini ham hidlamaydi."² Shuningdek, ushbu ilmning sharafi barobarida mas'uliyati ham yuksak ekanligini roviylarning fikrlari bilan ham isbot qiladi, Amr ibn Shuayb bobosidan rivoyat qiladi:

¹ Xatib Bag'dodiy. Al-Jome' li-axloq ar-roviy va adab as-some'. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. 1. – B. 25-26

² Xatib Bag'dodiy. Al-Jome' li-axloq ar-roviy va adab as-some'. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. 1. – B. 125.

“Mening nazdimda hadis ilmi bilan shug‘ullanishdanda qo‘rqinchliroq narsa yo‘q va shu barobarida Alloh bergan ne‘matlari ichida uni (hadis ilmini) ixtiyor qilgan odam uchun unga teng keladigani ham yo‘q.”³

Ma‘lumki, riyo, maqtanchoqlik kabi hislatlar islom dinida qoralanar ekan, hadis ilmi bilan shug‘ullanishda ham ushbulardan yiroq turishlik tolibi ilm uchun lozim hisoblanadi. Ushbu mavzuga esa “Al- Jome” asarida alohida to‘xtalib o‘tiladi. Xususan, Huzayfa ibn Yamon r. a. dan rivoyat qilinadi, Rosululloh sollallohu alayhi vasallam aytdilar: “Kim ilmni olimlarga maqtanish uchun yoki johillar bilan musobaqa qilish uchun va insonlar uni o‘zlarining yuzi deb qabul qilishlari uchun talab qilsa unga jahannam bordir”.⁴ Bejizga, Alloh taolo “Niso” surasida munofiqlarning namozi haqida xabar bera turib: “Insonlarga riyo qiladilar”, deydi⁵. Ya‘ni, ularning namoz o‘qishdan ko‘zlagan maqsadlari - Allohning yuzi emas, balki odamlar ko‘rib, eshitishlari - xo‘jako‘rsin uchundir. Xuddi shunday, hadis sharifni o‘rganishdan maqsad ham yuqorida ta‘kidlangandek insonlarning maqtovi bo‘lishidan ehtiyot bo‘lishi kerak. “Al- Jome” asarida keltirilishicha, Bahz ibn Hakim bobosidan rivoyat qiladi: “Kim odamlar u haqida gapirishlarini xohlab hadis organsa jannatning hidini tuymaydi, hatto uning shamolini beshyuz yillik masofadan his qiladi”⁶. Yoki boshqa bir rivoyatda “Kim hadisni u haqida yozishlari uchun yozsa, jannatning hidini tuymaydi”⁷ deb keltiriladi. Bundan ma‘lum bo‘ladiki, har qanday amal bo‘lishidan qat’i nazar, kishi niyatini Allohning rizoligi uchun qilmas ekan, oxiratdagi ajr-mukofotdan bebahra qoladi.

Xatib Bag‘dodiy (rahimahulloh) hadis ilmining fazilatlariga, xususan, u bilan Allohning xos bandalari shug‘ullanishi haqida ham to‘xtalib o‘tadi, Hasan Basriydan rivoyat qilinadi “Ulamolarning himmati rioya (g‘amxorlik)dir. Avomning himmati esa rivoyat qilishdir.”⁸

Hadis ilmi bilan shug‘ullanuvchi tolibga nafaqat niyatiga e‘tiborli bo‘lishi balki, olgan ilmiga amal qilishligi ham lozim bo‘ladi. Chunki ilm bilan maqomlar ko‘tariladi, yomonliklar bartaraf qilinadi. Zotan, ilm qalbgga o‘rnashsa, a‘zolar uni amal bilan tasdiqlaydi. Xatib Bag‘dodiy (rahimahulloh) ilm bilan amal qilish maqomini bayon qilar ekan shunday degan: “Hoy, ilm tolibi! Men sizga ilm izlar ekan niyyatni xolis qilish, bilimingiz taqozosi bilan amal qilishni vasiyat qilaman. Chunki, ilm daraxt bo‘lsa, amal uning mevasidir. Bilimiga amal qilmagan odam, olim hisoblanmaydi... Agar amal bilimga ko‘ra nuqsonli bo‘lsa, bu bilim insonga yuk bo‘ladi, xorlik keltiradi va bo‘yniga solingan zanjirga aylanadi. Amal qilish zarurati bo‘lmasa edi, ilm izlanmas edi. Haqiqatni bilmasdan

³ Xatib Bag‘dodiy. Al-Jome’ li-axloq ar-rovii va adab as-some’. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. 1. – B. 145.

⁴ O‘sha asar. – B. 150.

⁵ Qur‘oni karim ma‘nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi Abdulaziz Mansur. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot matbaa birlashmasi, 2009. – B. 176.

⁶ Xatib Bag‘dodiy. Al-Jome’ li-axloq ar-rovii va adab as-some’. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. 1. – B. 178.

⁷ O‘sha asar. – B. 178.

⁸ Xatib Bag‘dodiy. Al-Jome’ li-axloq ar-rovii va adab as-some’. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. 1. – B. 180.

tark qilishim men uchun, uni behojatlikdan tark qilishimdan ko'ra sevimliroqdir"⁹. Ilmga amal qilish hasanotlarga erishish va maqomlar yuksalishining omilidir. Shuning uchun Alloh taolo ko'plab oyatlarda iymon bilan amalni bir-biriga bog'lab zikr qildi: "Alloh iymon keltirgan va yaxshi amallar qilgan zotlar uchun mag'firat va ulug' ajr bo'lishini va'da qildi" (Moida:9)¹⁰. Bunga o'xshash oyatlar Qur'on Karimda talayginadir. Shu barobarida "Al- Jome'" asarida ham ushbu rivoyat keltiriladi, Muoz ibn Jabal rivoyat qiladi, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytdilar: "Qiyomatda kuni bandaning qadami to to'rt narsadan so'ralmagunicha joyidan jilmaydi: umrini nimada o'tqazayotganligi, yoshligini nimaga sarflayotganligi, molini qayerdan topib, qayerga sarflayotganligi, ilmiga qanday amal qilayotganligi"¹¹. Bundan ma'lum bo'ladiki, ilmga amal qilmaslik nafaqat ilmning barakasini o'chiradi balki, oxiratda bu narsadan javob berishga ham majbur bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, ilm olishda avvalo niyatni xolis qilish, yo'nalishni to'g'ri tanlash, milliy va diniy qadriyatlar bilan ma'naviyatni sayqallab borish har bir tolibi ilm uchun zaruriy bo'lgan ishdir. Shu orqali ilmning barakasi va fazilati kishida namoyon bo'ladi.

Bu haqda Imom G'azzoliy Xatib Bag'dodiy bilan hamfikir bo'lib, shunday degan: "Bilgilki, niyat, xohish va maqsad bitta ma'noni ifoda etuvchi iboralardir. Ularning barchasi qalbga bog'liq holat va sifatlar bo'lib, ilm o'rganish va unga amal qilishgina ularni mustahkam himoya ostida ushlab turadi"¹². G'azzoliy ham Xatib Bag'dodiy ham ilm o'rganib uni yaxshiliklarga ishlatsak qalbimizdagi niyat, xohish va istaklarimiz ham shunga monand bo'lib, yaxshiliklarga yo'nalishini tushuntirmoqda. Shunday ekan, agar qalbimizda ma'rifat nuri bo'lmasa, nafsimiz aqlimizdan g'olib kelsa, niyatimizni ham egrilik sari boshlar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Xatib Bag'dodiy. Al-Jome' li-axloq ar-roviy va adab as-some'. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. 1. – 560 b.
2. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi Abdulaziz Mansur. – T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyot matbaa birlashmasi, 2009. – 670 b.
3. Abu Homid G'azzoliy. Ihyou ulumid-din. – T.: Movorounahr, 2003. – 127 b.

⁹ O'sha asar. – B. 125.

¹⁰ Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi Abdulaziz Mansur. – T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyot matbaa birlashmasi, 2009. – B. 388.

¹¹ Xatib Bag'dodiy. Al-Jome' li-axloq ar-roviy va adab as-some'. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. 1. – B. 195.

¹² Abu Homid G'azzoliy. Ihyou ulumid-din. – T.: Movorounahr, 2003. – B. 64.